HOZIRGI AVLODDA EKOLOGIK VA ESTETIK DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Sharifova Adiba Farxod qizi.
Guliston davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: Saidkulov Nuriddin Akramkulovich

Annotatsiya. “Yoshlarni ekologik va estetik dunyoqarashini shakllantirishning dolzarb masalalari” nomli ushbu maqolada ekologik muammolar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va ekologiyani asrab-avaylash uchun eng zarur chora-tadbirlar, xususan, tarbiya, estetik did kabilar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Estetik did, estetik faoliyat, ekologiya, ekologik tanglik, tarbiya, madaniyat.

Inson zoti dunyoga kelganidan boshlab, tabiat va jamiyat deb atalgan tashqi muhit bilan munosabatga kirishadi. Dastlab bu munosabat anglanmagan, intuitiv, biologik-genetik tarzda, keyinroq anglab yetilgan. Yuksak darajadagi ijtimoiy hodisa sifatida ro‘y beradi. Estetik munosabat boshqa (aqliy, axloqiy, diniy va b) munosabatlarga qaraganda miqyosli va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Negaki boshqa munosabatlar inson aqlini tanigandan so‘ng boshlanadigan bo‘lsa, estetik munosabatlar inson go‘daklik paytidan uning turli rang-barang narsalarni ilg‘ashi va o‘ziga xos tarzda zavq olishligi bilan belgilanadi. Mustaqillik yillarida har bir insonning ongi va tafakkurida eng avvalo, tabiat va jamiyatga estetik munosabat va bu munosabatning ongli darajada amalga oshirilishi, qolaversa buning negizida insonlarda ekologik ong tushunchasini shakllantirish masalalari jamiyatimiz oldida turgan asosiy masalardan biri ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida har tomonlama asoslab berilgan.

Insonning voqelikka estetik munosabati, aslida voqelikka baho berishning alohida turi, voqea-hodisalarni nafosatli qadrlash usulidir. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tabiiy harakati inson hayoti, dunyoqarashini o‘zgartiradi, erkin va mustaqil fikrlashga undaydi. Mustaqilligimizni yigirma besh yili mobaynida mamlakatimiz hayotidagi o‘zgarishlar boshqa davrlardan tubdan farq

qiladi. Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, hayotidagi o‘zgarishlar, milliy, ma’naviy qadriyatlarimizning tiklanishi bilan bir qatorda tabiatga estetik munosabatda bo‘lish va bu jarayonda kishilarimizning ekologik ongini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelinmoqda. Bugungi kunda kishilar ongini, tafakkurini o‘stirishda, dunyoqarashini shakllantirishda ma’naviy va axloqiy fazilatlarni singdirish bilan bir birgalikda tabiiy muhitni asrab-avaylash, unga oqilona va odilona yondashuvni talab etadi. Ma’lumki, hozirda yurtimizda ekologik siyosat yurgizilmoqda. Shuni hisobga olgan xolda hozirgi davrda ekologiya sohasiga daxldor bo‘lgan quyidagi taxdidlarni ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan:

- Ishlab chiqarishni rivojlantirishga oid qarorlar qabul qilishda ekologik omillarning yetarlicha inobatga olinmasligi hamda aholining jismoniy sog‘ligi, atrof-muhit uchun zararli bo`lgan ishlab chiqarish faoliyatining rag‘batlantirilishi va kengaytirilishi;

Ikkinchidan:

- Ekologik jihatdan zararli bo‘lgan texnologiya, modda va materiyalardan aholi uchun kiyim-kechak, va uy-ro‘zg‘orlarini ishlab chiqarililishi, iste’mol uchun kimyoviy tarzda yaratilgan oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘payib borishi;

Uchinchidan:

- Hali-xanuz Orol dengizi bilan bog‘liq ekologik tanglik hamda uning jamiyat, atrof-muhit, o‘simlik va hayvonot olamiga ta’siri;

Demak, shu xalq farzandiman degan har bir shaxsning hozirgi globallashuv jarayonida doimo tabiat va jamiyatga estetik munosabatda bo‘lishi va ushbu jabhada olib borilayotgan ishlarga mustaqil dunyoqarash bilan munosabat bildira olishi davr talabidir. Bu esa har bir jamiyatimiz a’zosini ijtimoiy-siyosiy hayotda bo‘layotgan jarayonlarga befarq bo‘lmaslikni, ekologik muhitning sofligini ta’minlash uchun mas’ul ekanligini his qilib yashashni anglatib turadi.

Bu muammoni keng ko‘lamli yoritib berish va tatqiq etishda nafaqat hozirgi davrning yetuk mutaxassislarining fikr-mulohazalaridan, balki ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan “Yuksak g‘oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar” ning hali to‘la o‘rganilmagan jihatlarini tadqiq etib, xalqqa taqdim etish falsafiy fanlar oldidagi dolzarb vazifalardandir. “Ota bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan ilmiy-hayotiy tajribalari, diniy axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish vaqti keldi”. Bunda Avesto, Islom ta’limoti va tasavvuf, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, A.Temur, M.Ulug‘bek, A.Navoiy, Z.Bobur kabi mutafakkirlarimizning bu borada olib borgan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini o‘rganish bu sohada olib borilayotgan ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kundagi ekologik muammolar inson umrini ham ancha qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Abu Ali ibn Sinoning:”Agarda chang, g‘ubor bo‘lmaganda edi, insoniyat ming yil yashagan bo‘lar edi”,- degan fikri bejizga emas albatta.

Avvalambor yoshlarda ekologiyani asrab-avaylash, atrof-muhit, hayvonot olamiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘ladigan etib tarbiyalashda madaniyat, ma’naviy tarbiyaga bog‘liqdir. Insonlar turli xil chiqindilar bilan nafaqat tabiatga balki, o‘ziga ham naqadar katta zarar keltirayotganini anglaganida edi, hattoki, bitta ham chiqitni yerga tashlamagan bo‘lar edi.

Yoshlarimizdagi estetik did, estetik faoliyat har tomonlama uyg‘un shakllana borgandagina ekologik qadriyatlar vujudga keladi. Insonlarning tabiat quchog‘ida bo‘lishi ularni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini yanada oshirib boradi. Vatanni sevish-tabiatni sevishdan boshlanadi, binobarin, yoshlarda go‘zallikka nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg‘usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, insoniyatning har bir a’zosi o‘zi yashab turgan ona tabiatni o‘zidan keyingi avlodga go‘zal va obod, shuningdek o‘simlik va hayvonot dunyosining rang-barang turlarini to‘la saqlagan holda etkazib berish, ekologik va estetik madaniyatni yoshlar oniga singdirish va ona tabiat zahiralaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish har bir shaxsning o‘z oldidagi burchidir, chunki ona tabiatda hamma narsa chambarchas bir biri bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. 7 -T.: O‘zbekiston, 1999.

2. Karimov I. A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –T: 3 -T: O‘zbekiston, 1996 .